

## **XOTIN-QIZLARNI ILM-FANGA JALB ETISHNING IJTIMOY AHAMIYATI**

**Jumanazarova F.K,**

*Fan va texnologiyalar universiteti  
Ijtimoiy fanlar kafedrasida katta o‘qituvchisi,  
t.f.b.f.d. (PhD)*

[jumanazarovafotima74@gmail.com](mailto:jumanazarovafotima74@gmail.com)

**Erkinova Omina,**

*Tarix yo‘nalishi 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada xotin-qizlarning ilm-fanga jalb etilishining ijtimoiy ahamiyati, ularning ilmiy salohiyatini rivojlantirish jarayonida davlat siyosati, ta‘lim tizimi hamda jamiyatning roli tahlil etiladi. Shuningdek, ayollarni ilmiy faoliyatga jalb etish orqali mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga qo‘shiladigan hissasi yoritiladi. Bundan tashqari, ayollarning tarixan ilm-fanda ilg‘or o‘rin tutgani, jumladan, islom olamida ham ko‘plab olim ayollar yetishib chiqqanligi haqida fikr yuritiladi. O‘zbekiston Respublikasida xotin-qizlarni ilm-fan sohasida qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar masalasi ham o‘rganiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ayollarni ilm-fanga keng jalb etish jamiyatda innovatsion fikrlashni rivojlantirish, ta‘lim sifatini oshirish hamda ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashning muhim omili ekanligi asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** xotin-qizlar, ilm-fan, ta‘lim tizimi, ijtimoiy faollik, islom, davlat siyosati, innovatsiya, taraqqiyot.

**Аннотация.** В данной статье анализируется социальная значимость вовлечения женщин в науку, роль государственной политики, системы образования и общества в процессе развития их научного потенциала. Также освещается вклад в социально-экономическое развитие страны за счет вовлечения женщин в научную деятельность. В то же время в исламском мире говорят о том, что женщины являются передовыми в науке в прошлом. Изучены вопросы проводимых в Республике Узбекистан реформ по поддержке женщин в области науки. По результатам исследования обосновано, что широкое вовлечение женщин в науку является важным фактором развития инновационного мышления в обществе, повышения качества образования и обеспечения социальной стабильности.

**Ключевые слова:** женщины, наука, система образования, социальная активность, ислам, государственная политика, инновации, прогресс.

**Annotation.** this article analyzes the social significance of women’s involvement in science, public policy, education system and the role of society in the process of developing their scientific potential. The contribution to the socio-economic development of the country is also covered by the involvement of women in scientific activities. It is also mentioned that women are progressive in science in the history of the past, while there is an influx of noble women in the Islamic world. The issues of the reform of the Republic of Uzbekistan on the support of women in the field of science have been studied. According to the results of the study, it is based on the fact that the wide involvement of women in science is an important factor in the development of innovative thinking in society, improving the quality of education and ensuring social stability.

**Key words:** women, science, education system, social activism, Islam, Public Policy, Innovation, Progress.

**Kirish.** Agar jamiyatni o‘zgartirmoqchi bo‘lsak, avvalo ayollarga e‘tibor qaratishimiz, ularning ta‘lim olishi uchun barcha zarur sharoitlarni yaratishimiz lozim,

deya ta’kidlaydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev[1]. Mazkur fikr jamiyat taraqqiyotida ayollarning o‘rni beqiyos ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Bu borada Tomas Edison va uning onasi haqidagi mashhur hikoya ham chuqur ma’no kasb etadi[2]. Unda onaning farzandiga bo‘lgan ishonchi va e’tibori natijasida “qobiliyatsiz” deb baholangan bola buyuk ixtirochiga aylangani tasvirlanadi. Ushbu misol onalarning nafaqat oilada, balki butun jamiyat taraqqiyotida muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Darhaqiqat, ayol — tarbiyachi, ustoz va jamiyat me’mori sifatida kelajak avlodni shakllantiradi.

Tarixiy manbalariga ko‘ra, qadimgi sivilizatsiyalardan boshlab ayollar ilm-fan va madaniyat rivojida faol ishtirok etgan[3]. Qadimgi Bobil, Misr va Yunoniston davrlarida ayollar tibbiyot, falsafa va san’at sohalarida faol bo‘lganlar. Masalan, Agnodike qadimgi yunon jamiyatida ilk ayol shifokorlardan biri sifatida tanilgan.

Sharq va Markaziy Osiyo hududlarida esa Rabiya Balxiy, Bibixonim, Gulbadan begim kabi ayollar ilm va madaniyat rivojiga katta hissa qo‘shgan[4]. Xususan, Rabiya Balxiy o‘z davrining yetuk shoira va ziyolilaridan biri bo‘lib, ayollar erkin fikrlashining timsoliga aylangan. Temuriylar davrida esa ayollarning jamiyatdagi mavqei yanada mustahkamlandi. Bibixonim yirik me’moriy loyihalarda bosh-qosh bo‘lgan bo‘lsa, Gulbadan begim “Humoyunnoma” asari orqali tarixshunoslikka katta hissa qo‘shgan.

**Muhokama va natijalar.** XIX asrga kelib, jadidchilik harakati doirasida ayollarning ma’rifatli bo‘lishi g‘oyasi keng yoyildi. Nodira begim, Uvaysiy kabi ziyoli ayollar o‘z ijodi orqali jamiyatda ma’naviy uyg‘onishga xizmat qildilar[5].

Islom dini ham ilm olishni erkak va ayol uchun teng darajada farz deb belgilaydi. Hadislarda ilm izlash har bir musulmon uchun majburiyat ekani alohida ta’kidlangan[6]. Qur’oni karimda ham ilmning ustunligi ko‘rsatilib, bilimli insonlar jamiyatda alohida o‘rin tutishi qayd etiladi. Islom tarixida Oisha binti Abu Bakr hadis ilmining yirik namoyandasi sifatida tanilgan bo‘lsa, Fatima al-Fihriyya dunyodagi eng qadimiy oliy ta’lim muassasalaridan biri — Al-Qaraviyin universitetiga asos slogan[7].

Zamonaviy davrda ham ayollar ilm-fan sohasida ulkan yutuqlarga erishmoqda. Jumladan, Mariya Kyuri fizika va kimyo yo‘nalishlarida Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan ilk ayol sifatida tarixda qolgan. Malala Yusufzay esa qizlar ta’limi yo‘lidagi faoliyati uchun Nobel mukofotiga sazovor bo‘lib, eng yosh laureatga aylangan. Tu Yuyu tomonidan bezgakka qarshi samarali dori vositasining yaratilishi ham ilm-fandagi ayollarning ulkan hissasini ko‘rsatadi[8].

Bugungi globallashuv sharoitida jamiyat taraqqiyoti inson kapitalining rivojiga bevosita bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, xotin-qizlarni ilm-fanga jalb etish muhim strategik vazifa hisoblanadi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda bu yo‘nalishda keng

ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “Ilm yo‘lida” grant dasturi, ayollar uchun ta‘lim kvotalari, ilmiy kengashlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi[9].

Natijada, ayollarning ilmiy faoliyatdagi ishtiroki ortib bormoqda. Ular ilmiy maqolalar chop etish, xalqaro konferensiyalarda qatnashish va grant loyihalarda ishtirok etishda faol bo‘lib, mamlakat ilmiy salohiyatini oshirishga munosib hissa qo‘shmoqda. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik doirasida ayollar uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda.

**Xulosa** qilib aytganda, xotin-qizlarni ilm-fanga keng jalb etish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Bu nafaqat gender tenglikni ta‘minlaydi, balki mamlakatning ilmiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bois, ayollar uchun ta‘lim va ilmiy faoliyatga oid imkoniyatlarni yanada kengaytirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent. O‘zbekiston, 2021.
2. Morris A. Edison. A Biography. – New York. Random House, 2019.
3. History of Women in Science. – Cambridge University Press, 2018.
4. Ahmedov B. O‘rta Osiyo tarixida ayollar o‘rni. – Toshkent, 2005.
5. Qosimov B. Jadidchilik harakati tarixi. – Toshkent, 2004.
6. Imom Buxoriy. Al-jome’ as-sahih. – Toshkent. Sharq, 1997.
7. Siba’i M. Islomda ayol huquqlari. – Qohira, 2000.
8. Nobel Prize Official Reports. – nobelprize.org
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-fevraldagi PQ–4963-son qarori.